



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-oktabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 624 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 73 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 551 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 862,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,7 % ga oshdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 432,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 12 430,1 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 605,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 107,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 311 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 35 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 276 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 501,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 6 330,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 96,6 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Tuproqqal'a (11,8 m.), Yangibozor tumanlari (2,2 m.), Urganch shahri (2,2 m.), Qo'shko'pir (187,7 %), Shovot (136,9%) va Bog'ot tumanlarida (129,7 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 435 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 431 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 10 931,7 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: +998622246516 (9090)	Ijrochi: S.Kurbonova Tel: +998622246509 (9041) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	---	--